



XIZMATLAR: KO'LAM VA UNUMDORLIK

UDK: 338.46:331.101.6(575.1)

Anvarxonov A. J., Raxmonov A. A. **Xizmatlar: ko'lam va unumdorlik.** – T.: Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti.

Xizmatlar sohasi 2025-yilda O'zbekiston YIMining 48,6 foizini shakllantirib, jami band aholining 56,7 foizini ta'minlagan bo'lsa-da, ishchi kuchining yuqori unumdor xizmat turlariga qayta taqsimlanishi yetarli darajada kechmayapti. 2017–2025-yillar bo'yicha o'tkazilgan tarkibiy tahlil xizmatlar sohasidagi mehnat unumdorligi o'sishining asosiy manbai tarmoqlarning o'z ichidagi samaradorlik oshishi bo'lganini ko'rsatdi. Aksincha, statik va dinamik qayta taqsimlanish komponentlari salbiy natija qayd etgan. Xususan, 2025-yilda bandlikning 31,5 foizi unumdorligi past "boshqa xizmatlar" sektorida jamlangan, yuqori unumdor axborot va aloqa, moliya hamda ko'chmas mulk sohaslarining bandlikdagi ulushi esa 0,8–1,3 foiz atrofida qolgan. Tadqiqotning o'ziga xos jihati unumdorlik o'zgarishini tarmoq ichidagi, statik va dinamik qayta taqsimlanish effektlariga ajratib, xizmatlar sohasidagi tarkibiy transformatsiya holatini baholashdan iborat. Natijalar asosida Gig iqtisodiyotini rivojlantirish, yuqori qo'shilgan qiymatli xizmatlarda yangi ish o'rinlarini yaratish, mikrosertifikatlar va norasmiy ko'nikmalarni tan olish tizimini joriy etish hamda dual ta'limni kengaytirish taklif etilgan. Material iqtisodiy, bandlik va ta'lim siyosatini ishlab chiquvchi vazirlik va idoralar, biznes vakillari, ta'lim muassasalari hamda tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan.

Nashr uchun mas'ul: B. Xamidov, PhD, Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti direktori o'rinbosari

Materiallarni to'liq ko'chirish yoki qisman iqtibos keltirishga, shuningdek, jadval va grafiklardan foydalanishga <http://www.imrs.uz> saytiga giperxavola mavjud bo'lgan va/yoki muallifligini ko'rsatuvchi yozuv ilova qilingan taqdirda yo'l qo'yiladi.

Saytda e'lon qilish uchun 17.08.2026-yilda ruxsat yetildi.

© Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti, 2026-yil.

I. Xizmatlar sohasi: miqdor va sifat

O'zbekiston iqtisodiyotida xizmatlar sohasi yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. 2025-yilda xizmatlar sohasining YIMdagi ulushi 48,6 foizni tashkil etib, sanoat (25,6%), qishloq xo'jaligi (20,4 %) va qurilish (5,4 %) sohalari orasida **yetakchilikni saqlab qoldi**. Shu bilan birga, xizmatlar sohasi mamlakatdagi **barcha ish o'rinlarining yarmidan ko'prog'ini** (56,7 %) ta'minlamoqda.

Jahon bankining tahliliga ko'ra, past va o'rta daromadli mamlakatlarda ishchilarning qariyb yarmi xizmatlar sohasida band va ularning unumdorligi 1990-yillardan beri o'smoqda. Soha tobora iqtisodiy transformatsiyaning asosiy drayveriga aylanmoqda. Dunyo mamlakatlarida ham xizmatlar sohasining ulushi YIMda eng katta qismini egallaydi. Masalan: AQSH 79,7 foiz; Fransiya 70,4 foiz; Lyuksemburg 80,9 foiz; Qozog'iston 58,2 foiz; Yaponiya 69,8 foiz; Braziliya 58,9 foiz.

2017-yilda xizmatlar sohasida bandlar 6 732,2 ming (jami bandlarning 49,8 foizi) va 2025-yilda 8 461,0 ming kishini tashkil etgan (jami bandlarning 56,7 foizi). Bu yillar davomida xizmatlar sohasidagi **bandlik 1,2 barobarga oshgan**.

Ammo, miqdoriy o'sishning o'zi iqtisodiy taraqqiyotning to'liq manzarasini aks ettirmaydi. Jahon tajribasidan ko'rish mumkinki, rivojlanayotgan mamlakatlarda **ishchi kuchi ko'pincha qishloq xo'jaligidan sanoatga emas, balki aynan past mahsuldor xizmat turlariga ko'chishi** kuzatilmoqda. Bu istilohda «muddatidan erta deindustrializatsiya» hodisasi deb ataladi.

Tarkibiy transformatsiyaning asosiy harakatlantiruvchi kuchi ishchilarning **mehnat talab qiladigan sohalardan malaka talab qiladigan sohalarga** ko'chishidir. Shu bilan birga, bu ko'chish mavjud imkoniyatlar va kadrlar tayyorgarligi bilan bevosita bog'liq.

Xuddi shu muammo O'zbekistonda ham kuzatilmoqda. Ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra, xizmatlar sektorida bandlikning katta qismi 2025-yilda 31,5 foizi **unumdorligi past «boshqa xizmatlar» sektorida to'planib qolgan**, bu esa statik qayta taqsimlash effektining salbiy tus olishiga (-1,856 mlrd. so'm/ming kishi) olib kelgan.

1. Statik qayta taqsimlanish - ishchi kuchining unumdorligi past sohalardan unumdorligi yuqori sohalarga o'tishi natijasida yuzaga keladigan samaradorlikni o'lchaydi.

2. Dinamik qayta taqsimlanish - mehnat resurslarining unumdorligi eng tez o'sayotgan tarmoqlarga qanchalik samarali yo'naltirilayotganini aks ettiradi.

3. Tarmoq ichidagi effekt - iqtisodiyotdagi o'sishning qanchasi tarmoqlarning o'z ichidagi texnologik rivojlanish va samaradorlikni oshirish hisobiga bo'lganini ko'rsatadi.


II. Mehnat unumdorligi dinamikasi va tarkibiy tahlil

2017–2025-yillar davomidagi islohotlar natijasida xizmatlar sohasidagi mehnat unumdorligi, ya'ni bir ishchiga to'g'ri keladigan **mehnat unumdorligi 1,3 barobardan ko'proqqa o'sdi**. Ushbu o'sishning asosiy dvigateli tarmoq ichidagi samaradorlik effekti bo'lib, u jami 38,27 mlrd so'mlik o'sishning ustuvor qismini ta'minladi. Bu holat tarmoqlarning o'z ichki salohiyatini to'liq ishga solishi, texnologik yangilanish va jarayonlarning optimallashtirilishi iqtisodiy o'sishda hal qiluvchi rol o'ynaganini anglatadi.

Bu yillar davomida deyarli barcha xizmat sohalari bo'yicha mehnat unumdorligi ko'rsatkichi **ijobiy dinamikani namoyish etgan**. Biroq, **sohalar o'rtasidagi farqlar juda katta** bo'lib qolmoqda. Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar sohasida mehnat unumdorligi 964,0 mlrd. so'm/ming kishidan 1 340,0 mlrd. so'm/ming kishiga, moliyaviy va sug'urta faoliyati sohasida 447,1 dan 945,0 ga, hamda axborot va aloqa sohasida 173,8 dan 479,8 ga yetib, 2025-yilda xizmatlar tarmoqlari orasida eng yuqori ko'rsatkichlar aynan shu sohalarga tegishli bo'lgan.

Aksincha, boshqa turdagi xizmatlar sohasida mehnat unumdorligi 7,6 mlrd. so'm/ming kishidan 7,3 mlrd. so'm/ming kishiga pasaygan bo'lib, xizmatlar tarmoqlari orasida eng past ko'rsatkich qayd etilgan. Shuningdek, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida ko'rsatkich 46,1 dan 59,9 ga, ulgurji va chakana savdo sohasida esa 36,8 dan 71,4 ga oshgan bo'lsa-da, 2025-yilda ham mehnat unumdorligi darajasi nisbatan pastligicha qolgan. Eng unumli soha eng past unumli sohaga qaraganda qariyb **180 barobar ko'p qiymat** yaratgan.

2017-2025-yillarda xizmatlar sohasida unumdorlik o'sishining dekompozitsiyasi (2025-yil narxlarida, mln. so'm / ming kishi)



Xizmatlar sohasida bir band kishiga to'g'ri keladigan unumdorlik 2017–2025-yillardagi umumiy o'sishi jami 26,39 mln. so'm/kishini tashkil etgan bo'lsa (2025-yil narxlarida) – bu ko'rsatkichni uch tarkibiy qismga ajratish mumkin:

– o'sishning asosiy va yagona harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'lgan sektorlar ichidagi samaradorlik o'sishi 38,27 mln. so'm/kishini, ya'ni umumiy o'zgarishning 145,0 foizini tashkil etadi;
– bunga qarama-qarshi ravishda, ishchi kuchining sohalarga qayta taqsimlanishi o'sishni kamaytirgan: statik komponent – 7,36 (–27,9%), dinamik komponent esa – 4,53 (–17,2%) so'm/kishiga teng bo'lib, **bandlikning nisbatan sekin o'sayotgan sohalarga qayta taqsimlanish hodisasi** haqida darak beradi.


Sohalar bo'yicha eng katta hissa ulgurji va chakana savdoga to'g'ri keladi: +4,63 mln. so'm/ming kishi, ya'ni umumiy o'sishning 17,5 foizi. Undan keyin yashash va ovqatlanish (+4,58; 17,4%), axborot va aloqa (+4,51; 17,1%), moliyaviy va sug'urta faoliyati (+4,48; 17,0%) hamda tashish va saqlash (+2,70; 10,2%) turadi. **Ushbu besh soha** birgalikda umumiy unumdorlik o'sishining qariyb 79 foizini ta'minlagan.

Boshqacha aytganda, xizmatlar sohasidagi unumdorlik o'sishi butunlay **sektorlarning o'z ichidagi rivojlanishi hisobiga** yuz bergan. **Mehnat resurslarining yuqori unumli sohalarga qayta taqsimlanishi** esa o'sishga hissa qo'smagan, aksincha uni biroz tiyib turgan. Bu tarkibiy transformatsiya jarayoni hali to'liq amalga oshmaganini va kelajakdagi o'sishning muhim zaxirasi bo'lib qolayotganini tasdiqlaydi.

Masalan, yuqori unumli sohalar hisoblangan axborot va aloqa, moliya va ko'chmas mulk umumiy bandlikning 1 foiz atrofini (0,8–1,3%) tashkil qiladi va bu ulush deyarli o'zgarmagan (axborot va aloqa +0,3 foiz punkt, moliya –0,1 foiz punkt, ko'chmas mulk –0,2 foiz punkt). Aksincha, bandlikning eng katta o'sishi (+9,0 foiz punkt, 22,4% dan 31,5% ga) past unumli boshqa xizmatlar sektoriga to'g'ri keladi.


Boshqa xizmatlardan tashqari, bandlik ulushini oshira olgan yagona sohalar – axborot va aloqa (+0,3 foiz punkt) hamda boshqarish va yordamchi xizmatlar (+0,2 foiz punkt).

Xizmat turlari kesimida mehnat unumdorligi va bandlik ulushi (2025-yil narxlarida, 2017–2025-yillar)



Bu umumiy manzaradan **axborot va aloqa sohasi ajralib turishini** anglatadi. Mazkur soha uchala komponenti ham musbat bo'lgan yagona tarmoq hisoblanadi (sektor ichida +2,92; statik +0,58; dinamik +1,01). Ya'ni ushbu tarmoqda nafaqat unumdorlik oshgan, balki mehnat resurslari ham aynan yuqori unumdorlikka ega va o'sayotgan sohaga yo'nalgan. Bu xizmatlar sektorida strukturaviy transformatsiyaning eng samarali ko'rinishini ifodalaydi. Nisbatan kichikroq miqyosda boshqarish va yordamchi xizmatlar ham shunga o'xshash holatni namoyon etadi (+0,37; +0,38; +0,07).

2017-2025-yillarda unumdorlik o'sishining xizmat turlari bo'yicha dekompozitsiyasi (mln. so'm / ming kishi)



III. Takliflar

1. Gig iqtisodiyotini rivojlantirish. Bunda kamida 500 000 nafar gig-ishchini rasmiy ro'yxatga olish va ijtimoiy sug'urta tizimiga ulash, shu jumladan raqamli platformalarni majburiy ro'yxatga olish mexanizmi orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, 2027-yilga qadar yetakchi xalqaro pul o'tkazish platformalari (masalan, PayPal, Stripe) bilan rasmiy hamkorlik o'rnatish va qishloq hamda chekka hududlarda internet infratuzilmasini yaxshilash orqali 2028-yilga qadar kamida 50 000 nafar foydalanuvchini xalqaro frilans bozoriga olib chiqish mumkin. Buning yillik monitoringi hisobotlari orqali – rasmiylashtirilgan gig-ishchilar soni, ularning o'rtacha daromadi ko'rsatkichlari bo'yicha baholash maqsadga muvofiq.

2. Yuqori qo'shilgan qiymatli sohalarda ish o'rni yaratish bo'yicha maxsus davlat siyosati ishlab chiqish. Bunda 5-7 ta ustuvor yo'nalish tanlanadi, masalan, IT va dasturiy xizmatlar, professional biznes xizmatlari, logistika va qiymat zanjiri xizmatlari, fintex, telemeditsina edtex, zamonaviy turizm menejmenti. Har bir yo'nalish bo'yicha alohida "talab pasporti", ish o'rinlari prognozi va ko'nikma xaritasi ishlab chiqiladi. Bular asosida to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha davlat dasturi qabul qilinadi.

3. Mikrosertifikatlar tizimini joriy etish. Yuqori unumdor xizmatlarga o'tishning eng tez yo'li oliy ta'lim diplomi emas, balki bozorga kerak aniq ko'nikmalarni qisqa siklda berishdir. Mikrosertifikatlar mehnat bozoriga zarur aniq ko'nikmalarni tez ishlab chiqish, tasdiqlash va signal berish vositasi sifatida ko'riladi. Bunda Singapurning SkillsFuture modelini uzluksiz qayta tayyorlash, moliyaviy rag'bat va sektor bo'yicha malaka ramkalarini birlashtirgani uchun amaliy namuna sifatida qabul qilinadi. 8 dan 16 haftagacha bo'lgan modulli dasturlar faqat maqsadli vakansiyalariga bog'lanadi, o'qish yakunida ish beruvchi tan oladigan mikrosertifikat beriladi, bandlik natijasi subsidiya tizimiga bog'lanadi.

4. Norasmiy va noformal tajribani tan olish tizimini joriy etish. Bunda savdo, mijoz bilan ishlash, hisob-kitob, yetkazib berish yoki raqamli ko'nikmalar kabi amaliy tajribaga ega insonlarning ko'nikmalari mehnat bozorida tan olinishini ta'minlovchi soddalashtirilgan "Ko'nikma auditi + test + ulovchi modullarni o'qish + sertifikat" tizim joriy etiladi. Natijada, yuqori unumdor xizmatlardagi rasmiy ish o'rinlariga kirishi osonlashadi.

5. Dual ta'lim. Bunda Germaniyaning ikki bosqichli (dual) kasb-hunar ta'limi modeliga asoslanib, AKT, moliya va logistika sohaslarida kamida 20 ta yangi shogirdlik (Ausbildung) yo'nalishi bo'yicha milliy malaka standartlarini ishlab chiqish va joriy etish, har bir yo'nalish uchun nazariy va amaliy o'qitish ish beruvchilar bilan hamkorlikda tashkil etiladi. 2028-yil oxiriga qadar kamida 15 000 nafar talabani ushbu dual ta'lim dasturlariga jalb qilish va «Duale Hochschule» modeli asosida ishlaydigan kamida 3 ta mintaqaviy kollej-korxona hamkorlik markazini tashkil etish ko'zda tutiladi.

Singapur 2010-yillardan boshlab past unumdorlikdagi xizmat sohaslarini (savdo, ovqatlanish, mehmonxona) texnologiya va davlat subsidiyalari orqali ko'tarishga erishgan: **Productivity Solutions Grant** (Samaradorlik yechimlari) – davlat dasturi orqali restoran va chakana savdo korxonalari raqamli yechimlarni (mol-mulk hisobi, mijozlar bilan ishlash tizimlari) joriy qilishda xarajatlarning 80 foizigacha subsidiya oldi.

Bundan tashqari yana bir unumdorligi past soha ta'lim xizmatlari uchun **SkillsFuture** (Kelajak imkoniyatlari) dasturi yo'lga qo'yilgan. Bu dastur orqali ishchilarni qayta tayyorlash uchun har bir ishga oluvchiga bir martalik 10 000 Singapur dollari kredit berish orqali ishchi kuchini o'qitish tashabbuslariga sarmoya kiritgan tadbirkorlarga qo'shimcha yordam bo'lgan, bir martalik 10 000 Singapur dollari orqali tadbirkor o'qitish va texnologiya joriy qilish kabi xarajatlarning 90 foizigacha qoplashga erishadi. Singapur xizmatlar sohasi bo'yicha qisqa vaqt ichida jahon yetakchilaridan biriga aylandi. Bunga nafaqat unumdorligi past sohalarda balki unumdorlik yuqori sohalarda ham turtki bo'ldi:

- Moliya markaziga aylanish: xorijiy banklarga to'liq erkin kirish va 17 foizlik past korporativ soliq joriy etilishi natijasida dunyo moliyaviy institutlari mintaqaviy shtab-kvartirasini Singapurga ko'chirdi.

- Ta'lim islohoti: maktab bosqichidan boshlab STEM yo'nalishi kuchaytirildi. SkillsFuture davlat dasturi orqali har bir fuqaroga tekinga kasbiy qayta tayyorlanish imkoniyati berildi – bu moliya va IT sohasida yuqori malakali kadrlar tarkibini shakllantirdi.

- Smart Nation strategiyasi (Aqlli millat strategiyasi): 2015-yildan barcha davlat xizmatlari to'liq raqamlashtirilib, hukumat va biznes o'rtasidagi byurokratik to'siqlar keskin kamaytirildi.

- Savdo erkinligi: 27 dan ortiq mamlakat bilan erkin savdo shartnomalari imzolandi, bu esa xizmatlar eksportini yanada kengaytirdi.